



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI,
XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI
VA TASHQI QARZI**

2024
YILLIK HISOBOT

Bu qanday nashr?

Ushbu nashr 2024-yil uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqeい hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2025-yil 29-mart holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni qayerdan olish mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqeい hamda tashqi qarzi bo'yicha tahhliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli savol va takliflar bo'yicha qanday murojaat qilish mumkin?

O.O. Tojiddinov

Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti direktori

(+998) 71 212-60-38

o.tojiddinov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinnbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.


QISQACHA SHARH

2024-yilda O'zbekiston to'lov balansi ko'rsatkichlari jahonda asosiy eksport xomashyo mahsulotlari narxlarining o'zgarishi, global moliyaviy sharoitlarning yumshatilish fazasiga o'tishi, asosiy savdo hamkor mamlakatlar valyuta kurslaridagi tebranishlar hamda mehnat migratsiyasi yo'naliishida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar kabi **tashqi omillar**, shuningdek mamlakatda yuqori darajadagi iqtisodiy faollik, xizmat ko'rsatish sohasida eksport salohiyatining oshishi, hukumat tomonidan fiskal taqchillikni kamaytirish bilan bog'liq rejalarining amalga oshirilishi singari **ichki omillar** ta'sirida shakllandi.

2024-yilda **joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi 5,7 mlrd dollar** tashkil qildi (2023-yilda *7,8 mlrd doll*). Bunga savdo balansi manfiy saldosining biroz kamayishi bilan birga ikkilamchi daromadlar komponenti bo'yicha kelib tushgan joriy transfertlar hajmining sezilarli darajada ko'payishi ta'sir ko'rsatdi.

Jumladan, eksportning importga nisbatan yuqoriroq sur'atlarda o'sishi natijasida, savdo balansining manfiy saldosini (*17,4 mlrd doll*) deyarli 2023-yil darajasida saqlanib qoldi. (*1-diagramma*).

1-diagramma



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

2024-yilda xalqaro bozorlarda xomashyo narxlarining o'zgarishi va norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar hajmining ko'payishi natijasida, **jami eksport hajmi 2023-yilga nisbatan 4,5 foizga o'sib, 26,2 mlrd dollarni tashkil qildi (oltinsiz – 18,7 mlrd doll, o'sish 11 foiz).**

Asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari tahlliiga ko'ra, 2024-yil davomida oltinning o'rtacha narxi 2023-yil ko'rsatkichiga nisbatan 23 foizga, kumush narxi 21 foizga, mis narxi 8 foizga hamda uran narxi 42 foizga o'sgan bo'lisa, to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi – paxtaning jahon narxi 9 foizga pasaygan. (2-diagramma).

2024-yilda **jami import hajmi** 2023-yilga nisbatan **2,3 foizga** ko'payib, **43,6 mlrd** dollarga etdi. Bu 2023-yilda ayrim turdag'i tovarlarning bir martalik yirik importi 2024-yil davomida sezilarli darajada qisqargani bilan izohlanadi. Shunga qaramay, mamlakatda investitsiyaviy faoliy va ichki iste'mol talabi yuqori darajada saqlanib qolishi sharoitida xorijdan energoresurslar, mashina va uskunalar, oziq-ovqat mahsulotlarining keltirilishi davom etdi.

2024-yilda mehnat muhajirlari ishlaydigan an'anaviy mamlakatlarda ishchi kuchiga talab oshishi natijasida ish haqi miqdorining o'sishi hamda mehnat migratsiyasi geografiyasining diversifikatsiyasi kabi ijobiy tendensiyalar birlamchi va ikkilamchi daromadlar komponentlari bo'yicha tushumlarning ko'payishiga xizmat qildi. O'z navbatida, norezidentlarning investitsiya daromadlari oshishi xarajatlarni ko'paytiruvchi omillardan bo'ldi¹.


Natijada, **birlamchi** va **ikkilamchi daromadlar** balansi musbat saldo bilan shakllanib, mos ravishda 1,1 mlrd va 10,6 mlrd dollarni tashkil etgan holda savdo balansi taqchilligini qisman qopladи.

Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi moliyaviy hisob bo'yicha kapital tushumlar, xususan, to'g'ridan-to'g'ri, portfel investitsiyalar va boshqa manbalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.

2-diagramma

Jahon xomashyo narxlari indeksi

(2022y. 1 yanvar = 100%)



Manba: Jahon banki va XVJ ma'lumotlari asosida Markaziy bank hisob-kitoblari


¹ Transchegaraviy pul o'tkazmalari to'g'risida batafsil ma'lumotlar Markaziy bank veb-saytida e'lon qilingan 2024-yil uchun "Jismoniy shaxslarning valyuta operatsiyalari bo'yicha qisqacha sharh" dan olinishi mumkin.

Jumladan, 2024-yil davomida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**² 2023-yilga nisbatan 32 foizga o'sib, 2,8 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga 3,1 barobarga ko'payib, 3,1 mlrd dollarni tashkil qildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2024-yil yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob manfiy saldosini 7,4 mlrd dollarni tashkil etdi.** (*3-diagramma*).

3-diagramma



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

Hisobot davrida **xalqaro zaxira aktivlarining xorijiy valyutadagi qismi 734 mln dollarga qisqarishi kuzatildi.** Biroq, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i 2024-yil boshiga nisbatan qariyb 6,6 mlrd dollarga ko'payib, 2025-yilning 1-yanvar holatiga **41,2 mlrd** dollarni tashkil qildi.


2024-yil yakuniga ko'ra, to'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqeい** joriy yil boshiga nisbatan **11 foizga** mustahkamlanib, 2025-yil 1-yanvar holatiga **13,7 mlrd** dollarga etdi.

² To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-soni, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'tasidagi saldo) aks ettiriladi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi 11,8 mlrd dollarga (*hisobot yili boshiga nisbatan o'sish 14 foiz*) oshgan bo'lса, tashqi majburiyatлari hajmi 10,4 mlrd dollarga (*o'sish 14 foiz*) ko'paydi.

Hisobot davri yakuniga ko'ra, **umumiу tashqi qarz** hajmi **64,1** mlrd dollarni (*YalMga nisbatan 55,7 foiz*) tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi qariyb 33,9 mlrd dollar³ (*YalMga nisbatan 29,5 foiz*) hamda korporativ tashqi qarz hajmi 30,2 mlrd dollarga teng bo'ldi. (*4-diagramma*).

4-diagramma



Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki

³ XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

2025-YIL UCHUN KUTILMALAR

2024-yil uchun O'zbekiston tashqi sektor statistikasining yakuniy ko'rsatkichlari, mamlakatimiz va uning asosiy savdo hamkorlarida joriy va keyingi yillardagi iqtisodiy o'sish sur'atlari, xalqaro moliya va tovar-xomashyo bozorlari kon'yunkturasi, mehnat va kapital migratsiyasi, tashqi savdo va logistika sohalaridagi o'zgarishlar dinamikasi bo'yicha ekspertlarning kutilma va baholashlarini inobatga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi to'lov balansining 2025-yil uchun **asosiy** va **muqobil ssenariylarda** proqnoz ko'rsatkichlari shakllantirildi⁴.

I. Asosiy ssenariy

O'zbekistonning eksport tovarlari uchun tashqi yalpi talabning shakllanishi asosiy savdo hamkor mamlakatlardagi iqtisodiy faollik darajasi, tashqi savdodagi fragmentatsiya jarayonlari hamda jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan noaniqliklarning davom etishiga bog'liq bo'lib qolmoqda.

Joriy yilning yanvar oyidagi Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan jahon mamlakatlari, shu jumladan O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha proqnozlar qayta ko'rib chiqilgan.

Jumladan, Xalqaro valyuta jamg'armasiga ko'ra, 2025-yilda Xitoy iqtisodiyoti 4,6 foizga (2024-y. 4,8%), Rossiya 1,4 foizga (2024-y. 3,8%), Turkiya 2,6 foizga (2024-y. 2,8%) va Qozog'iston 5,5 foizga (2024-y. 4%) o'sishi mumkin⁵.

O'zbekistonning asosiy eksport xomashyo mahsulotlarining jahon narxlari bo'yicha ijobjiy kutilmalar saqlanib qolmoqda. Xususan, joriy yilning dastlabki oylarida AQShning savdo siyosati, geosiyosiy vaziyat va global moliyaviy sharoitlar bilan bog'liq noaniqliklar fonida 1 tr. unsiya oltinning narxi birinchi marotaba 3 000 dollardan yuqori shakllandi. Makroiqtisodiy noaniqliklar hamda xalqaro bozorlarda oltinga bo'lган talab yuqoriligi oltin narxining yil so'ngiga qadar yuqori narxlarda saqlanib qolishi proqnoz qilinmoqda⁶.

Kumush va mis narxlarining o'tgan yilgi ijobjiy o'sish trendi 2025-yil davomida ham saqlanib qolishi bo'yicha kutilmalar mavjud⁷. Joriy yilning dastlabki ikki oyida mazkur metallarning narxi yil boshiga nisbatan mos ravishda 4,5 foiz va 4,6 foizga o'sdi.

2025-yilda turizm, transport va logistika hamda kommunikatsiya, kompyuter va axborot texnologiyalari (IT) sohasi xizmatlar eksportining asosiy drayverlari sifatida saqlanib qolishi, shunindek, mazkur sohalarda islohotlarning davom ettirilishi natijasida norezidentlarga xizmat ko'rsatish ko'lami oshishi kutilmoqda.

⁴ 2025-yil davomida ichki va tashqi omillarning rivojlanishi hamda iqtisodiy kutilmalarning o'zgarishidan kelib chiqib, proqnoz ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqib boriladi.

⁵ Jahon iqtisodiy istiqbollari, XVJ, 2025-y. yanvar.

⁶ Oltin bozori sharhi, Jahon oltin uyushmasi, 2025-y. fevral.

⁷ Xomashyo bozorlari istiqbollari, Jahon banki, 2024-y. oktabr.

Yuqorida keltirilgan omillar ta'sirida 2025-yilda **jami eksport** hajmi o'tgan yilga nisbatan 10-12 foizga o'sishi prognoz qilinmoqda.

Joriy yilda yuqori investitsiyaviy faollik va ichki iste'mol talabi import dinamikasini belgilovchi omillardan bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyoti real hisobda 5,5-6 foizga va yakuniy iste'mol xarajatlari 5-6 foizga o'sishi kutilmoqda⁸.

Mazkur jarayonlar hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha investitsiya dasturlari doirasida mineral mahsulotlar, oziq-ovqat sanoati mahsulotlari, mashina, uskuna va mexanizmlar hamda boshqa xomashyolar importining o'sishida namoyon bo'llishi mumkin.

Shuningdek, Hukumatning fiskal taqchillikni kamaytirish bo'yicha rejalarini inobatga olib, 2025-yilda **jami import** hajmi o'tgan yilga nisbatan 8-10 foizga o'sishi kutilmoqda.

2025-yil davomida aksariyat mehnat muhojirlarni qabul qiluvchi mamlakatlarda iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari kutilmalarga nisbatan pastroq shakllanishi va mehnat migratsiyasi siyosatining qat'iyashtirilishi mumkin bo'lsa-da, ishchi kuchiga talab va ish haqlarining yuqori darajada saqlanib qolishi mehnat muhojirlari daromadlarining oshishini rag'batlantirishi mumkin.

Shuningdek, hukumatlararo kelishuvlar doirasida mehnat muhojirlarini rivojlangan mamlakatlarga yuborish borasida tizimli ishlar amalga oshirilishi davom etishini inobatga olib, O'zbekistonga **xalqaro pul o'tkazmaları** hajmi 10-15 foizga oshishi kutilmoqda.

O'tgan yilning ikkinchi yarmidan boshlab global moliyaviy sharoitlarni bosqichmabosqich yumshatib borish fazasiga o'tildi. Natijada, joriy yilda xalqaro moliyaviy bozorlarda foiz stavkalarining o'tgan yilga nisbatan pastroq shakllanishi (*SOFR stavkasi o'rtacha 5,3 foizdan 4,3 foizga pasaygan*) norezidentlardan suzuvchan foiz stavkalarda jalb qilingan kreditlar va qarzlarga xizmat ko'rsatish hamda yangi qarzdorliklar jalb qilish xarajatlarining kamayishiga xizmat qilishi mumkin.

2025-yilda savdo balansi manfiy saldosini qoplashga xizmat qiluvchi **birlamchi** va **ikkilamchi daromadlar** komponentining ijobiy saldosi o'tgan yilga nisbatan 4-6 foizga ko'payishi taxmin qilinmoqda.

Yuqoridagi ichki va tashqi omillar ta'sirida, **2025-yil** yakuni bilan to'lov balansi **joriy operatsiyalari hisobining** manfiy saldosini YalMning 5-6 foizi atrofida bo'llishi prognoz qilinmoqda.

2025-yilda joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi asosan **xorijiy to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarning** sof *kiritilishi* (*energetika, tog'-kon, mashinasozlik, kimyo sanoati, to'qimachilik, bank-moliya va boshqa sohalarga kiritilishi kutilayotgan sarmoyalarni hisobiga o'rtacha 2022-2024-yillar darajasida bo'llishi*), **portfel investitsiyalar** (*xalqaro kapital bozorlarida yangi yevrobondlar joylashtirilishi*) va **tashqi qarz** mablag'lari jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirilishi kutilmoqda.

⁸ 2024-yil IV chorak uchun Pul-kredit siyosati sharhi. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki nashri, 2025-yil.

II. Muqobil ssenariy

Asosiy ssenariydan farqli o'laroq, muqobil ssenariyda 2025-yil yakuni bilan to'lov balansining **joriy operatsiyalari hisobi** YalMning 6-7 foiziga teng manfiy saldo bilan shakllanishi taxmin qilinmoqda.

Muqobil ssenariyda, to'lov balansi ko'rsatkichlarining shakllanishiga quyidagi **omillar** ta'sir qilishi mumkin:

1. Geosiyosiy vaziyatning keskinlashishi, tashqi savdoda fragmentatsiya jarayonlarining kuchayishi va mamlakatlar tomonidan keng miqyosda proteksionizm siyosatining qo'llanilishi hamda mahsulot yetkazib berish zanjiridagi uzilishlar oqibatida O'zbekistonning asosiy savdo hamkorlarida iqtisodiy faollikning kutilmalarga nisbatan past darajada bo'lishi va yalpi talabning qisqarishi;

2. Xalqaro bozorlarda O'zbekistonning asosiy eksport tovarlari (*rangli va rangsiz metallar, to'qimachilik sanoati xomashyolari, oziq-ovqat mahsulotlari*) narxlarining pasayishi;

3. Global inflyatsion jarayonlar kuchayishi fonida pul-kredit sharoitlarining qat'iy darajada saqlanib qolishi natijasida tashqi qarz mablag'lari xizmat ko'rsatish xarajatlarining ortishi va xorijiy investitsiyalar oqimining kamayishi;

4. Sanksiyalarning kuchaytirilishi oqibatida mehnat muhojirlarini qabul qiluvchi an'anaviy mamlakatlarning to'lov tizimlaridagi uzilishlar va valyuta kurslaridagi yuqori tebranishlarning kuzatilishi hamda mehnat migratsiyasi siyosatining qat'iylashtirilishi oqibatida ishchi kuchi taklifining qisqarishi ortidan transchegaraviy pul o'tkazmaları hajmining kamayishi;

5. O'zbekistonda iqtisodiy faollikning ma'lum darajada pasayishi va aholi real daromadlarining maqbullahishi natijasida import tovar va xizmatlariga talabning kamayishi.

Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqeい va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

1-ilova. 2022-2024-yillar uchun to'lov balansi
(tahliliy ko'rinishi)

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosи	-2 846,7	-7 799,4	-5 737,9
Tovarlar, kredit (eksport)	16 649,2	19 616,6	19 626,1
Tovarlar, debit (import)	28 309,2	34 475,6	33 160,0
Xizmatlar, kredit (eksport)	4 316,6	5 433,0	6 547,1
Xizmatlar, debit (import)	7 334,2	8 170,8	10 464,2
<i>Savdo balansi saldosи</i>	<i>-14 677,5</i>	<i>-17 596,9</i>	<i>-17 451,0</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	4 321,4	5 317,6	5 667,4
Birlamchi daromadlar, debit	3 307,8	4 325,3	4 532,6
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosи</i>	<i>-13 663,8</i>	<i>-16 604,5</i>	<i>-16 316,2</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	11 684,6	9 685,4	11 603,7
Ikkilamchi daromadlar, debit	867,5	880,2	1 025,4
B. Kapital operatsiyalari hisobi (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	22,2	8,4	8,3
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	22,2	8,4	8,3
Kapital operatsiyalar hisobi, debit	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosи</i>	<i>-2 824,4</i>	<i>-7 790,9</i>	<i>-5 729,6</i>
C. Molaviy hisob	-480,3	-6 681,4	-6 803,7
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	4,1	11,7	36,7
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	2 657,4	2 156,4	2 836,1
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,0	0,5	0,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,0	0,5	0,3
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	27,3	994,8	3 121,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	25,6	23,2	-4,5
Qarz instrumentlari	1,8	971,6	3 125,8
Hosilaviy molaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	9,9	1,6	0,0
Hosilaviy molaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy molaviy instrumentlar, majburiyatlar	-9,9	-1,6	0,0

Ko'rsatkichlar	2022-yil	2023-yil	2024-yil
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	11 264,2	3 955,7	5 728,2
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	0,4	5,0
Qarz instrumentlari	11 263,8	3 955,3	5 723,2
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	1 645,8	-1 206,2	897,9
Davlat boshqaruv sektori	-21,1	-18,1	-15,3
Boshqa sektorlar	9 639,2	5 179,6	4 840,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	9 639,2	5 179,6	4 840,5
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	9 073,7	7 499,8	6 611,5
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	4,8	2,4	-1,4
Qarz instrumentlari	9 069,0	7 497,4	6 612,9
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	3 860,9	942,0	787,0
Davlat boshqaruv sektori	3 134,2	3 421,5	4 606,7
Boshqa sektorlar	2 073,9	3 134,0	1 219,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	29,5	14,4	8,3
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	2 044,4	3 119,6	1 210,9
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	1 020,0	-1 581,4	-1 685,4
E. Umumiyl balans	1 324,2	2 690,9	611,4
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-1 324,2	-2 690,9	-611,4
Zaxira aktivlari	-1 323,0	-2 751,8	-734,3
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	1,1	-60,9	-122,9
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-soni, XVJ, 2009 y.) 6-nashrida keltirilgan tahsililiy ko'rinishni aks ettiradi.

**2-ilova. 2022-2024-yillar uchun xalqaro investitsiyaviy mavqe
(tahliliy ko'rinishi)**

Ko'rsatkichlar	(mln dollar)		
	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.01.2025y.
Aktivlar	82 293,7	84 883,5	96 672,8
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	202,0	209,9	243,6
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	31,6	37,1	68,9
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	31,6	37,1	68,9
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'ttasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	170,3	172,8	174,7
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,5	2,5
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'ttasida investitsiyalar	167,9	170,4	172,2
Portfel investitsiyalar	2,5	2,9	3,1
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,5	2,9	3,1
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,4	1,8	2,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralardan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsionlari	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.01.2025y.
Boshqa investitsiyalar	46 321,6	50 106,0	55 244,5
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	1,6	2,0	7,0
Qarz instrumentlari	46 320,0	50 104,0	55 237,4
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	4 556,9	3 242,7	4 061,9
Davlat boshqaruvi sektori	3,7	4,8	2,8
Boshqa sektorlar	41 759,4	46 856,4	51 172,8
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	35 767,5	34 564,6	41 181,6
Monetar oltin	23 064,8	24 632,2	32 036,7
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	1 057,3	563,0	547,3
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	11 645,4	9 369,5	8 597,7
Majburiyatlar	63 337,0	72 582,3	82 988,4
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	13 844,7	14 866,9	16 727,7
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 363,5	11 356,8	12 185,7
To'g'ridan-to'g'ri investoring to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 363,5	11 356,8	12 185,7
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'ttasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	2 481,2	3 510,1	4 542,1
To'g'ridan-to'g'ri investoring to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2 250,3	3 217,4	4 090,2
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'ttasida investitsiyalar	230,9	292,7	451,8
Portfel investitsiyalar	4 192,3	5 295,5	8 429,0
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	105,8	123,7	116,7
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	48,4	57,5	75,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	57,4	66,3	41,7
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,3	1,7	1,3

Ko'rsatkichlar	01.01.2023y.	01.01.2024y.	01.01.2025y.
Qarz qimmatli qog'ozlari	4 086,5	5 171,8	8 312,3
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	893,9	1 027,7	2 340,4
Davlat boshqaruvi sektori	2 375,2	3 284,9	4 050,5
Boshqa sektorlar	817,3	859,2	1 921,4
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralardan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarining opsionlari	2,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	45 298,1	52 419,9	57 831,6
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 057,6	1 068,8	1 037,4
Boshqa qarz instrumentlari	44 240,4	51 351,2	56 794,2
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	10 439,7	11 315,8	11 801,3
Davlat boshqaruvi sektori	18 007,8	21 353,4	25 346,5
Boshqa sektorlar	15 793,0	18 682,0	19 646,4
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	105,1	114,1	119,3
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	18 956,7	12 301,2	13 684,4

3-ilova. O'zbekiston tashqi sektorining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Joriy operatsiyalar hisobi saldosi (mlrd doll)	-3,0	-4,9	-2,8	-7,8	-5,7
YalMga nisbatan %da	-4,6%	-6,3%	-3,2%	-7,6%	-5,0%
Tovar va xizmatlar eksporti (mlrd doll)	14,5	16,4	21,0	25,0	26,2
YalMga nisbatan %da	21,9%	21,3%	23,3%	24,4%	22,8%
Tovar va xizmatlar importi (mlrd doll)	22,6	27,9	35,6	42,6	43,6
YalMga nisbatan %da	34,1%	36,1%	39,6%	41,6%	37,9%
Savdo balansi saldosi (mlrd doll)	-8,1	-11,5	-14,7	-17,6	-17,4
YalMga nisbatan %da	-12,2%	-14,9%	-16,3%	-17,1%	-15,2%
Birlamchi va ikkilamchi daromadlar saldosi (mlrd doll)	5,1	6,6	11,8	9,8	11,7
YalMga nisbatan %da	7,6%	8,5%	13,1%	9,5%	10,2%
Moliyaviy hisob saldosi (mlrd doll)	-4,1	-6,4	-1,8	-9,4	-7,4
YalMga nisbatan %da	-6,2%	-8,3%	-2,0%	-9,1%	-6,5%
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (sof - oqim, mlrd doll)	1,7	2,3	2,7	2,1	2,8
YalMga nisbatan %da	2,6%	2,9%	2,9%	2,1%	2,4%
Portfel xorijiy investitsiyalar (sof - oqim, mlrd doll)	1,4	2,0	0,03	1,0	3,1
YalMga nisbatan %da	2,1%	2,6%	0,03%	1,0%	2,7%
Xalqaro zaxiralar qoldig'i (mlrd doll, davr oxiriga)	34,9	35,1	35,8	34,6	41,2
YalMga nisbatan %da	52,5%	45,4%	39,7%	33,7%	35,8%
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe (mlrd doll, davr oxiriga)	20,3	17,1	19,0	12,3	13,7
YalMga nisbatan %da	30,5%	22,1%	21,0%	12,0%	11,9%
Umumiyl tashqi qarz qoldig'i (mlrd doll, davr oxiriga)	33,8	39,4	43,5	53,3	64,1
YalMga nisbatan %da	50,9%	51,0%	48,3%	51,9%	55,7%
YalM joriy narxlarda (mlrd doll, davr oxiriga)	66,4	77,3	90,1	102,6	115,0